

RABINJON YODGORLIGINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA AKS  
ETISHI

**Xikmatullayev Shoxinur Negmatulla o'g'li**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti*

[shoxinurxikmatullayev@gmail.com](mailto:shoxinurxikmatullayev@gmail.com)

**ANNOTATSIYA.** *Mazkur maqola Rabinjon yodgorligining arxeologik tadqiqotlardagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mavjud yozma manbalar hamda arxeologik topilmalar tahlili asosida ushbu yodgorlikning tarixiy rivojlanish bosqichlari, mudofaa tizimi va shaharsozlik an'analari aniqlashtirildi. Maqolada Rabinjon yodgorligining mintaqaviy arxeologiya tizimidagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Olingan natijalar yodgorlikning haqiqiy tarixiy qiyofasini tiklashga va uning ahamiyatini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot yakunida yodgorlikni yanada chuqur o'rganish zarurligi asoslab beriladi. Ushbu ish arxeologiya fanining rivojlanishiga hamda tarixiy merosni o'rganishga muhim hissa qo'shadi.*

**Kalit so'zlar:** *Rabinjon yodgorligi, Zirabuloq tog'lari, stratigrafiya, shaharsozlik, xronologiya.*

**REFLECTION OF THE RABINJON SITE IN ARCHAEOLOGICAL RESEARCH**

**ANNOTATION.** *This article analyzes the role and significance of the Rabinjon site in archaeological research. Based on the analysis of available written sources and archaeological findings, the study clarifies the historical development stages, defensive system, and urban planning traditions of this site. The article particularly emphasizes the place of the Rabinjon site within the regional archaeological framework. The obtained results contribute to reconstructing the authentic historical image of the site and enhancing its significance. The study also substantiates the need for further in-depth research of the monument. This work makes an important contribution to the development of archaeology and the study of cultural heritage.*

**Keywords:** *Rabinjon site, Zirabulok Mountains, stratigraphy, urban planning, chronology.*

**KIRISH (Introduction)**

Rabinjontepa yodgorligi Samarqand viloyatining janubiy qismidagi Narpay tumanida, Tosh ko'prik mahallasida joylashgan. Bu haqida mashhur arxeolog olim A. Yakubovskiy ham ham ta'kidlab o'tadi (A.Yakubovskiy.1934.b.157). IX–XII asrlar Markaziy Osiyo tarixida iqtisodiy va madaniy yuksalish davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda mintaqada ilm-fan taraqqiy etib, xalqaro savdo yo'llari faollashgan, shaharsozlik va qishloq madaniyati izchil rivojlangan. Ayniqsa, Samarqand Sug'di hududidagi shahar va rustoqlar

nafaqat iqtisodiy, balki ma'muriy hamda madaniy markazlar sifatida ham muhim o'rin tutgan. O'rta asr arab geograflari va tarixchilari asarlarida mazkur hududdagi aholi manzilgohlari haqida qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Al-Istaxriy, Ibn Havqal, al-Muqaddasiy va as-Sam'oniyy kabi mualliflar Samarqand Sug'di tarkibiga kirgan Maymurg', Yorkat, Burnamad, Buzmojan, Kabudanjkat, Vidor va Marzubon kabi rustoqlar bilan bir qatorda Ishtixon, Dobusiya va Arbinjon shaharlarini ham tilga olganlar. Ushbu manbalar orqali mintaqadagi aholi joylashuvi, yo'l tarmoqlari hamda siyosiy-iqtisodiy aloqalarni tiklash imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur yodgorlik Sug'd vohasining yirik va muhim shahar markazlaridan biri sanalib, uning umumiy maydoni qariyb 100 gektarni tashkil etadi. Shaharning tuzilishi ark, shahrison hamda rabod qismlaridan iborat bo'lib, bu holat uning rivojlangan urbanistik markaz bo'lganini ko'rsatadi. 1970–1973-yillar davomida yodgorlikning ark va shahrison hududlarida keng ko'lamli planigrafik hamda stratigrafik qazish ishlari olib borilgan (F.Buryakov, M. Rastovsev.1984.b.167-168). Ushbu arxeologik tadqiqotlar natijasida Rabinjonning shaharsozlik tizimi, mudofaa inshootlari va madaniy qatlamlariga oid muhim ilmiy ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Rabinjontepa yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari ushbu manzilgohning uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirgan yirik shahar markazi bo'lganini ko'rsatadi. F. Buryakov va M. Rostovsevlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tahlillarga ko'ra, Rabinjon shahri milodiy IV asrlardan boshlab shakllana boshlagan. Keyingi asrlarda, ayniqsa IX asr oxiri – XII asr o'rtalarida shaharning hududi sezilarli darajada kengayib, uning iqtisodiy va madaniy mavqei yanada yuksalgan. Bu davrda shaharda urbanizatsiya jarayonlari kuchayib, ark, shahrison va rabod qismlarining faol rivojlanganligi kuzatiladi (F.Buryakov, M. Rastovsev.1984.b.167-168).

Arxeologik ma'lumotlar Rabinjonning o'rta asrlarda Sug'd vohasining muhim savdo va hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lganini tasdiqlaydi. Shaharning Buyuk ipak yo'liga yaqin hududda joylashgani uning iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. 2023-yilda olib borilgan arxeologik qazuv ishlari esa yodgorlikning shahrison, rabod hamda janubi-sharqiy chekkasida joylashgan xumdon hududlarida amalga oshiriladi. Mazkur tadqiqotlar davomida turli davrlarga oid madaniy qatlamlar, xo'jalik inshootlari va hunarmandchilik faoliyatiga daxldor arxeologik topilmalar aniqlanib, Rabinjonning shaharsozlik va ishlab chiqarish tizimini o'rganishda muhim ilmiy natijalar qo'lga kiritiladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili ( Literature riviev )**

Rabinjon yodgorligi haqidagi dastlabki ma'lumotlar o'rta asr sharq geograf va tarixchilarining asarlarida uchraydi. Xususan, IX–X asrlarda yashagan mashhur arab geografi Abu Ishoq al-Istaxriy o'zining "Kitob al-masolik va-l-mamolik" asarida Rabinjonni Samarqand va Buxoro oralig'idagi muhim savdo shahri sifatida tilga oladi. Istaxriy ma'lumotlariga ko'ra, Rabinjon karvon yo'llari kesishgan hududda joylashgan bo'lib, rivojlangan bozorlari va sug'orma dehqonchiligi bilan ajralib turgan. U shaharni Sug'dning yirik iqtisodiy markazlaridan biri sifatida tavsiflaydi.

Shuningdek, X asr tarixchi va geografi Ibn Havqal ham Rabinjon haqida ma'lumot berib, uni Samarqand vohasining muhim shaharlari qatoriga kiritadi. Ibn Havqal shaharning

mudofaa devorlari, aholisi va hunarmandchiligi rivojlanganini qayd etadi. Unga ko'ra, Rabinjon Buyuk ipak yo'lidagi faol savdo nuqtalaridan biri bo'lgan.

XI asr olimi Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham Samarqand vohasidagi qadimiy shaharlar qatorida Rabinjon nomi uchraydi. Bu esa shaharning o'rta asr ilmiy muhitida ham ma'lum bo'lganidan dalolat beradi.

Yevropa va rus sharqshunoslari tomonidan Rabinjonni ilmiy o'rganish XIX asr oxiri — XX asr boshlarida boshlandi. Dastlabki ilmiy kuzatuvlar rus sharqshunoslari tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa-da, yodgorlikdagi ilk arxeologik tadqiqotlar 1934-yilda Aleksandr Yakubovskiy tomonidan olib borildi. Olim Rabinjon xarobalarining topografiyasini o'rganib, uning qadimiy Sug'd shahri ekanligini ilmiy asoslashga harakat qildi.

1970–1973-yillarda Galina Pugachenkova hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti tomonidan keng ko'lamli qazishmalar olib borildi. Tadqiqotlar davomida ark, shahriston va rabod qismlari aniqlanib, turli davrlarga oid me'moriy qoldiqlar, sopol buyumlar, metall ishlov berish ustaxonalari va tangalar topildi. Ayniqsa, Somoniylar davriga oid oltin tangalar xazinasini Rabinjonning IX–X asrlarda yirik iqtisodiy markaz bo'lganini tasdiqladi.

So'nggi yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida Qoraxoniylar davriga oid turarjoylar, xumdonlar va hunarmandchilik buyumlari aniqlanib, Rabinjonning uzoq vaqt davomida uzluksiz yashab kelgan urbanistik markaz ekanligi yana bir bor isbotlanadi.

### **Tahlil va natijalar (analysis and results)**

Rabinjon yodgorligida dastlabki arxeologik tadqiqotlar XX asrning 30-yillarida boshlangan bo'lsa-da, keng ko'lamli ilmiy izlanishlar 1971-yilda O'zSSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti tomonidan amalga oshirildi. Tadqiqotlarda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi hamda boshqa ilmiy tashkilotlar ham ishtirok etgan. Asosiy e'tibor qadimgi sug'orish tizimlari, kanal izlari va Rabinjon atrofidagi urbanistik hududlarni o'rganishga qaratildi. Qazishmalar davomida qadimgi kanal tarmoqlari, turarjoy qoldiqlari hamda neolit va bronza davriga oid arxeologik materiallar aniqlandi. Tadqiqotchilar Rabinjonning o'rta asrlarda Samarqand va Buxoro oralig'idagi yirik savdo va dehqonchilik markazi bo'lganini ilmiy jihatdan asosladilar. Mazkur tadqiqotlar Rabinjon tarixini kompleks o'rganish uchun muhim ilmiy poydevor vazifasini o'tadi.

So'nggi yillarda Rabinjon yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida shaharning hunarmandchilik va shaharsozlik madaniyatiga oid muhim ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Xususan, 2023-yilgi qazishmalar davomida kulolchilik bilan bog'liq ishlab chiqarish majmualari, jumladan, ikki yarusli va gumbazsimon shaklda qurilgan xumdonlar aniqlanadi (Бердимуродов А.Сандибоев Н.Алимов Махамадиев Ф.С.98). Tadqiqotchilar ushbu xumdonlarni o'rta asrlarda kulolchilik mahsulotlarini pishirishda foydalanilgan mahalliy ishlab chiqarish inshootlari sifatida baholaydilar. Shuningdek, shaharning janubi-sharqiy qismida joylashgan kulolchilik ustaxonalari Rabinjonda maxsus hunarmandchilik hududlari shakllanganini ko'rsatadi. Topilgan arxeologik materiallar Rabinjonning XI–XII asrlarda yirik iqtisodiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy etganini tasdiqlaydi. Yodgorlikdagi so'ngi

tadqiqot ishlari 2024-yilda 14-qazishma hududida davom ettirilib, qazishma maydoni sezilarli darajada kengaytiriladi (Berdimurodov A.E., Sandiboyev A.N., Alimov N.G. 2025.b.74-77). Tadqiqotlar natijasida to'rtburchak tarhli bir necha xonalar to'liq ochilib, ularning qurilishida paxsa va xom g'isht asosiy qurilish materiali sifatida qo'llanilgani aniqlanadi. Xonalarda tandir, o'choq, tokcha, yo'lak va xo'jalik o'ralari kabi maishiy unsurlar qayd etilishi ushbu majmuaning turar joy vazifasini bajarganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ayrim xonalardan topilgan sopol qozonlar, shisha idish tagdonlari hamda sirlangan sopol buyumlar Rabinjontepa aholisi hunarmandchiligi va kundalik turmush madaniyati yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Tadqiqot davomida aniqlangan arabiy yozuvli sirlangan kosalar Afrosiyob (Мирзаахмедов, 2011. С. 212), Toshkent va Farg'ona vodiysi yodgorliklari materiallari bilan o'xshash (Анарбаев, 2013.С.436) bo'lib, ular IX–X asrlar bilan davrlashtirildi. Shuningdek, Somoniy hukmdori Nasr I ibn Ahmad nomidan zarb qilingan tangalarning topilishi Rabinjontepaning rivojlangan o'rta asrlarda muhim iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo'lganligini tasdiqlaydi.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation)**

Rabinjontepa yodgorligi Samarqand Sug'di hududidagi yirik va muhim tarixiy shahar markazlaridan biri hisoblanadi. Yodgorlikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida uning uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan rivojlangan urbanistik markaz bo'lgani aniqlandi. Yozma manbalar hamda arxeologik topilmalar Rabinjonning o'rta asrlarda Samarqand va Buxoro oralig'idagi muhim savdo, hunarmandchilik va madaniy markazlardan biri sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi. Ayniqsa, shaharning ark, shahriston va rabod qismlaridan iborat murakkab tuzilishga ega bo'lishi uning rivojlangan shaharsozlik an'analarini namoyon etadi.

So'nggi yillarda olib borilgan qazuv tadqiqotlari natijasida turarjoy qoldiqlari, kulolchilik ustaxonalari, xumdonlar hamda turli xo'jalik inshootlarining aniqlanishi Rabinjontepaning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti yuqori darajada taraqqiy etganini tasdiqlaydi. Shuningdek, topilgan sopol buyumlar, tangalar va boshqa arxeologik materiallar yodgorlikning IX–XII asrlarda Movarounnahrning yirik madaniy markazlari bilan chambarchas aloqada bo'lganidan dalolat beradi. Shu jihatdan Rabinjontepa yodgorligi nafaqat Samarqand vohasi, balki butun Markaziy Osiyoning o'rta asrlar tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Kelgusida Rabinjontepa yodgorligida arxeologik qazuv ishlarini yanada kengaytirish hamda yodgorlikning turli qismlarida kompleks tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, zamonaviy GIS texnologiyalari, aerofotosurat va dron kuzatuvlaridan foydalanish yodgorlikning urbanistik tuzilishini aniqroq o'rganish imkonini beradi.

Shuningdek, topilgan arxeologik materiallarni laboratoriya tahlillari asosida chuqurroq tadqiq qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yodgorlikni tarixiy-madaniy meros obyekt sifatida muhofaza qilish, uni turistik yo'nalishlarga kiritish va ilmiy tadqiqotlarni muntazam davom ettirish Rabinjontepaning tarixiy ahamiyatini kengroq yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Якубовский А.Ю. Краткий полевой отчет о работах Зеравшанской археологической экспедиции Эрмитажа и ИИМК. в 1939 г. // ТОВЭ. Т. II. – Л.,1940.
2. Буряков Ю.Ф., Ростовцев О.М. Археологические исследования Рабинджана // ИМКУ. Вып. 19. Ташкент, 1984.
3. Бердимуродов А.Сандибоев Н.Алимов Махамадиев Ф. 2023 йилда Робинжонтепа ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар: 2023 йил. Самарқанд, 2024.
4. Berdimurodov A.E., Sandiboyev A.N., Alimov N.G'. 2024-yilda Rabinjon yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar // O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar (Archaeological Researches in Uzbekistan). – Samarqand, 2025. – 17-son. – B. 74–77.
5. Мирзаахмедов Д. Художественная культура Центральной Азии и Азербайджана IX–XV вв. Том I. Керамика. Самарканд-Ташкент: МИЦАИ, 2011.
6. Анарбаев А. Ахсикет – столица древней Ферганы. Ташкент, 2013.